

MEDIA MANIPULATIV USULLARNING YOSHLARNING ONGIGA TA`SIRI

Jasurbek Pulatov

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

Xalqaro Munosabatlar kafedrası o'qituvchisi

Abstrakt: *Bugungi globallashuv zamonida jamiyatning barcha qatlami, bevosita yoshlarning ongiga turli vositalar orqali ta'sir ko'rsatish va ular orqali tartibsizliklar keltirib chiqarish, jamiyatda beqarorlikni kuchaytirish singari hodisalar eng actual muammolar sarasiga kiradi, bu maqolada ayni shunday vositalardan biri bo'lmish oav va medianing manipulyatsion tarzda yoshlar ongiga ta'sir ko'rsatishi va ulardan immunitet hosil qilish uchun bajarilishi lozim bo'lgan zaruriy choralar borasida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *OAV, Xalqaro Munosabatlar, Blogerlik, AOKA, Integratsiya, Globalizatsiya*

Mustaqil O'zbekiston o'z ozodligini qo'lga kiritganiga ham 32 yil bo'ldi. Bu vaqt davomida yurtimizning jahon globalizatsiya jarayoniga integratsiyalashuvi juda jadallik bilan sodir bo'ldi va bu holat hozir ham davom etmoqda. Xalqaro munosabatlar, savdo aloqalari, xavfsizlik masalalarida hamkorliklar qatori OAV ham O'zbekistonning jahon miqyosida o'z o'rniga ega bo'lishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Yosh davlatning erishgan yutuqlari, boy tarixi, ulkan imkoniyatlari kabi ko'plab tamsil qilinishga arzigulik ishlar jahon media bozorida zamonaviy tilda aytganda reklama qilinishi, nafaqat xorijliklarni bu diyorga qiziqishlari ortishiga, shuningdek shu yurt aholisining ham jahonda o'z so'zi va o'rniga ega ekanligidan faxrlanish tuyg'ularini ham yuzaga keltiradi.

«Kundalik hayotimizning ajralmas qismi bo'lgan ommaviy axborot vositalari haqida so'z yuritganda, biz avvalo, doimo yangilik izlab, yangilikka intilib, hayotning qaynoq nuqtalariga kirib boradigan, xolislik va haqqoniylik, Vatan va xalq manfaatlarini birinchi o'ringa qo'yadigan olijanob va mas'uliyatli kasb egalarini tasavvur qilamiz»³

Ayniqsa, mamlakatning kelajagi bo'lgan yoshlar bugungi kunga kelib, o'z hayotlarini OAVsiz tasavvur qila olmasliklari, mubolag'asiz aytganda OAVning deyarli barcha turlari ajralmas bo'lakka aylangan ekanligi butun dunyoda sodir bo'layotgan voqelik hisoblanadi. Shu sabab, O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritgan dastlabki yillardan boshlab, aholini xavfsiz axborot, eng so'nggi yangiliklar, dunyoda sodir bo'layotgan muttasil o'zgarishlar, yashirilmagan, senzurasiz OAV bilan ta'minlashni o'z oldiga maqsad qilgani holda, asta – sekinlik bilan mustaqil OAVni vujudga keltirish ishlarini olib bordi.

³ Shavkat Mirziyoyev – O'zbekiston matbuot va ommaviy axborot xodimlari kasb bayramiga tabrigi – <https://daryo.uz/2017/06/27/shavkat-mirziyoyev-ozbekiston-matbuot>

Bugungi kunga kelib, sobiq Ittifoq davri va mustaqillikning ilk yillaridagi OAVdan har tomonlama ustun bo'lgan "massmedia" faoliyat olib bormoqda. Ayniqsa, so'nggi 7 yilda OAVning mustaqil faoliyat yuritishi, unda so'z erkinligi ta'minlanishi uchun qilingan barcha ishlar taqsinga sazovordir. Qilingan ishlarni amalda ko'rib chiqadigan bo'lsak, barcha turdagi OAV, undagi jurnalist, muharrir, reportyor, muhbirlarni xavfsizligini o'z zimmasiga oladigan AOKA, biz uchun yangi qatlam bo'lgan "Bloggerlar"ni himoya qilish jamiyati singari nodavlat va mustaqil, o'z o'rniga va o'z so'ziga ega bo'lgan tashkilotlar tashkil etilganligi, ularga katta vakolatlar bilan birgalikda, emin erkin faoliyat yuritishiga to'sqinlik qiluvchi unsurlardan jamiyatni tozalanilayotgan ekanligi, O'zbekistonning so'z erkinligi, jurnalistik faoliyat, shaffof axborot olish imkoniyatlari bo'yicha tuziladigan turli reytinglarda mavqei ko'tarilib borishiga katta ta'sir ko'rsatmoqda.

«Har bir yangi qabul qilingan qonun qoida aslida cheklovdir. Terrorizm, ekstremizmni targ'ib qilish, nafratga asoslangan materiallarni tarqatish kabi faoliyat turlari nafaqat jurnalistlar yoki bloggerlar, balki barcha fuqarolarga birdek ta'qiqlangan»⁴

Mustaqillikni dastalbki yillarida va undan keyingi davrda bo'lgan islohotlar bugungi OAV uchun o'ziga xos poydevor vazifasini o'tab bergan bo'lsa, hozirgi o'zgarishlar tom ma'noda aytadigak bo'lsak OAVning to'la to'kis shakllanishini o'z nihoyasiga yetkazishga olib kelishini, ta'bir joiz bo'lsa jahondagi yetuk OAVlar bilan bir qatorda turishi, kerak bo'lsa raqobatlasha olish darajasiga chiqishini ta'minlashga qaratilganligi bilan xarakterlanadi.

Sohada amalga oshirilgan ijobiy yangiliklar bilan bir qatorda, hali qilinishi kerak bo'lgan ko'plab ishlar ham bor. Jumladan O'zbekistonda aholining yarimidan ko'pini tashkil etadigan yoshlarni turli terrorchi, jinoiy guruhlardan va ularning g'arazli g'oyalaridan, foydasiz manbalardan, pornografiyadan va shular qatori oltinga teng bo'lgan yoshlarning vaqtini o'zlari va jamiyat uchun keraksiz mashg'ulotlardan saqlash yo'lida OAVning roli juda beqiyosdir. Shu sababdan, OAVning yoshlar hayotida o'z o'rniga ega ekanligini faqat va faqat foydali tomonlarini kuchaytirishga katta e'tibor qaratish lozimdir.

Birgina Internetni oladigan bo'lsak, OAVning elektron turi bo'lgan bu soha yurtimizga 1996-yilda rasman kirib kelgan ekanligi, u bilan bir qatorda turli ijtimoiy tarmoqlar ham kirib kelishi mamlakat yoshlari hayotini tubdan o'zgartirib yubordi. Jahon bilan hamnafas rivojlanib borish ijobiy bo'lishi bilan birga bir qator salbiy jihatlar borligini ham inkor etib bo'lmaydi.

Masalan, 2000-yillar boshida sodir etilgan dunyoning turli burchaklaridagi muvaffaqiyatsiz qo'poruvchilik hurujlaridan so'ng, terrorchilar o'zlariga maslakdosh topish maqsadida ijtimoiy tarmoqqa katta e'tibor berishlari va uning ta'siri natijasida yurtimizda ham o'z yo'lini yo'qotib, firibgarlar changaliga tushib qolgan turli yoshdagi yoshlar, o'zlari bilmagan holda jinoiy guruhlar safiga kirib qolganliklari; yaqin 10

⁴ Behzod Mamadiyev – <https://www.xabar.uz/uz/jamiyat/bloggerlikni-qonun-bilan-tartibga>

yillikda yurtimizga kirib kelgan «Одноклассники.ru» ijtimoiy tarmog'idan noto'g'ri foydalanish oqibatida qanchadan – qancha qizlarning o'z iffatini yo'qotishi, manaviyatimizga xos bo'lmagan unsurlarning kirib kelishi va hatto, turli psixologik nuqsonga ega bo'lgan shaxslar tomonidan o'z joniga qasd qilishgacha olib kelinadigan turli jonli o'yinlar hali bu borada immunitetga ega bo'lmagan mamlakat hayotida chuqur iz qoldirganini ta'kidlamasdan iloji yo'q.

Ijtimoiy tarmoq, umumiy aytadigan bo'lsak Internetning bunday salbiy tomonlarini cheklash yoki uni umuman yopib qo'yish bilan bunday illatlarga qarshi kurashib bo'lmaydi. Nima narsani cheklash, unga bo'lgan qiziqishni ortishiga olib keladi. Shu sababdan, aholida, yanayam anig'rog'i yoshlarda turli yot unsurlarga nisbatan immunitet hosil qilish maqsadida targ'ibot - tashviqot ishlarini amalga oshirish, ijtimoiy tarmoqdagi salbiy holatlarni yashirmasdan, bor holicha tushuntirish, shuningdek, xavfsiz va mukammal bo'lgan platforma yaratish masalalariga e'tibor qaratish ustuvor vazifa hisoblanadi.

Bu borada, OAV istaymizmi yoki yo'qmi yaqqol yetakchi maqomida turishini qabul qilmay iloji yo'q. Ota – onalarning ish bilan band bo'lishi, ustoz, murabiylarning o'quvchilarga yetarlicha e'tibor qaratishga ulgurmasligi, yoshlarning o'z tengqurlari bilan til topishish, bir – birlari tugul, o'zlarini ham tushunishdagi muammolari borligi kabi bir qator masalalar tufayli yoshlar o'zlariga ovunchoq sifatida OAVning qaysidur turini tanlashi - soha mutassadilarini bu borada yanada e'tiborliroq va ma'suliyat bilan ishlashga undashi bu ayni haqiqatdir. Yurtimiz kelajagi bo'lgan yoshlarning ochiq, shaffof, xavfsiz jamiyatda yashashlari uchun barcha turdagi OAVlar astoydil harakat qilmoqlari lozim hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Президент Шавкат Мирзиёевнинг «Камолот» ёшлар ижтимоий ҳаракатининг IV қурултойидаги нутқи. 2017 йил 30 июнь. <https://prezident.uz/uz/lists/view/729>
2. Гримак Л.П. Резервы человеческой психики. - М., 2004
3. Жилавская И.В. Медиаобразование молодежной аудитории. Томск: ТИИТ, 2009
4. Кульчицкая Д. Ю., Вартанов С. А., Дунас Д. В., Салихова Е. А. и др. Медиапотребление молодежи: специфика методологии исследования // Медиаскоп. 2019. Вып. 1. URL: <http://www.mediascope.ru/2529>
5. Пахрутдинов Ш. Тахдид – ҳалокатли куч. - Т.: Академия, 2001
6. Третьяков В. Теория телевидения. ТВ как карнавал неоязычество и как карнавал: курс лекций, Москва: научно-издательский центр «Ладомир», 2015